

DUNYO TILLARI TASNIFI BO‘YICHA AYRIM MA’LUMOTLAR

Gulrux Xayrullayevna

*Ilmiy rahbar: SamDCHTI dotsenti v.b,
f.f.f.d (PhD)*

Haydarov Xurshed

SamDCHTI, Ingliz tili I fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tillar tasnifining turlari, dunyo tillarining til oilalariga bo‘linishi va ularning yana o‘z ichida til guruhlariga ajralishi, tillarning genealogik va tipologik tasnifi, eng murakkab tillar va dunyo tillari haqida qiziqarli ma’lumotlar berib o‘tilgan. Tilshunoslik fanini anglab olishimiz uchun oldin biz til nima ekanligini va biz uni nima uchun o‘zlashtirishimiz kerak ekanligini bilib olishimizga ushbu maqolani o‘qib javob topasiz degan umiddamiz.

Kalit so‘zlar: Tillar tasnifi, tillarning genealogik tasnifi, tillarning tipologik tasnifi, analitik tillar, amorf tillar, sintetik tillar, flektiv tillar, agglyutinativ tillar, polisintetik tillar, oligosintetik tillar, til oilalari, til guruhlari.

Til - insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. Aloqa boshqa vositalar bilan ham o‘rnatilishi mumkin: Morze alifbosi, imo-ishora va boshqalar. Masalan, Afrikada uzoq masofaga axborot berish uchun qo‘llanadigan nog‘ora tovushlari, Kanar orollarida ishlatiladigan “Xushtak - tili” shular jumlasidandir. Boshqa aloqa vositalari tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Til va boshqa aloqa vositalarini birlashtiruvchi xususiyatlar quyidagilar:

- fikr va hissiyotni ifodalashi;
- ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qilishi;
- moddiylik (tovush to‘liqlari, grafik chizmalar)
- ob‘ektiv borliqni aks ettirishi.

Ular orasidagi farqlar quyidagilar: til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo‘llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko‘lami cheklangan, masalan, ko‘cha harakati belgilari faqat haydovchilarga xizmat qiladi;

- til quruq axborotning o‘zining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish - istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi.[3;6]

Tilning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyot yo‘lini o‘rganish tilning qanday hodisa ekanligini tasavvur qilish imkonini beradi. Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o‘rtasida kurash boradi. Quyida shular to‘g‘risida fikr

yuritimiz. Shulardan biri X - IX asrda Germaniyada Avgust Shleyxer tomonidan asos solingan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikrdir. Shleyxer u yoki bu hodisaning tabiiy yoki ijtimoiylikmi xalqning irodasi shu hodisaga ta'sir ko'rsata olish-olmasligi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog'liq bo'lmaydi, u o'z qonunlari asosida rivojlanadi, demak, til tabiiy hodisalar qatoridan o'rin olishi kerak. Bundan til dunyodagi boshqa tabiiy hodisalar singari o'z-o'zicha paydo bo'ladi, rivojlanadi, kezi kelganda, yo'q bo'ladi, o'ladi degan ma'no kelib chiqadi. Til kishining tabiiy xususiyatlari (masalan, yurish, nafas olish, ovqatlanish va boshqalar)ga xos narsadir. Olma daraxti ma'lum vaqt o'tishi bilan olma hosili berganidek, odam bolasi ma'lum yoshga yetganda gapira boshlashi kerak. Bunday fikrni ilgari surgan olimlarda ba'zi «dalillar» ham bor edi. Ular lotin, sankrit (qadimgi hind tili) kabi o'lik tillarni misol qilib ko'rsatishadi. Mazkur fikr tarafdorlari o'z nazariyalarini asoslashda nemis faylasuf olimi Gegelning absolyut g'oyasidan foydalanadilar. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishini ana shu absolyut g'oyaning harakati deb bilishdi. Aslida tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyati bilan uzviy bog'langan. Til jamiyat mahsuli, jamiyat bor joyda til paydo bo'ladi. [2;7]

Tilshunoslikka oid bilishimiz kerak bo'ladigan va tilshunoslikka qiziquvchi odamlarni o'ziga qarata oladigan masalalar va ma'lumotlar juda ham ko'p biz bugun tilshunoslikning bir qismi bo'lgan tillar tasnifi haqida quyida fikr yuritmoqchimiz.

Tillar tasnifi – tillarning muayyan belgilar asosida hamda tadqiqotning umumiy maqsadidan kelib chiqadigan qarashlarga mos keluvchi ma'lum tasnifiy bilimlar bo'yicha guruhlariga ajratilishi. Tillar tasnifi muammosi ularning qiyosiy o'rganish vaqtida paydo bo'ladi va ba'zan qiyosiy o'rganishning pirovard maqsadi, deb tasavvur etiladi[6].

Tillar tasnifining 2- asosiy turi mavjud:

- 1) Tillarning genealogik tasnifi
- 2) Tillarning tipologik tasnifi

Endi tillarning genealogik tasnifiga qaraydigan bo'lsak: Tillarning genealogik tasnifi tillarning qarindoshligi tushunchasiga asoslanadi. U qiyosiy - tarixiy tilshunoslik paydo bo'lgandan keyingina ro'yobga chiqqan.

Tillar tasnifining ikkinchi turi tillarning tipologik tasnifi yoki tillarning morfologik tasnifi ham deyiladi. Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi – tillarni grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishiga ko'ra guruhlariga ajratish tillarning tipologik tasniflashning bir turi. Tipologiya so'zi yunonchadan olingan bo'lib «typos» - nusxa, andoza, shakl va «logos» so'z, ta'limot degan ma'nolarni ifodalaydi, ya'ni tillar o'rtasida genetik munosabatdan qat'iy nazar, ularning tuzilmaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganuvchi tilshunoslik sohasidir.

Morfologik tipologiya o'z ichiga quyidagi turlarga bo'linadi. Buni quyidagi jadvaldan bilib olishimiz mumkin.

Morfologik tipologiya

Analitik tillar

Amorf tillar

Sintetik tillar

Flektiv tillar

Polisintetik tillar

Agglyutinativ tillar

Oligosintetik tillar

Analitik tillar – Grammatik ma`nolar (so`zlar munosabati) shakl yasovchi affikslar yordamida emas, balki yordamchi so`zlar so`z tartibi va intonatsiya vositasida ifodalanadi. Ingliz, Fransuz, Ispan, yangi Fors tillari analitik tillar hisoblanadi.

Amorf tillari (shaklsiz) – affikslar bilan so`z yasalishi va so`z o`rganishi bo`lmagan tillar. Ikki so`zning bitishuvidan yoki yordamchi so`zlar yordamida yuzaga chiqadi. Masalan: Xitoy tilida ge (arava) va shang (ustida) degan ikta so`zdan “geshang”(aravaning usti, yoki aravaning ustida) degan so`z hosil bo`lgan. Bu amorf tillariga kiruvchi til turkumidan bitta misol.

Sintetik tillar (qo`shiluvchi, birikuvchi) - bunda bir so`z tarkibida bir qancha morfemalar, binobarin, leksik va grammatik ma`nolar birlashadigan qo`shiladigan tillar. Masalan, O`zbek tilidagi “ishchilarga“ so`zida so`z shakli sintetik holatda bo`lib unda ham leksik (ish va chi) ham grammatik (lar va ga) ma`nolar ifodalangan.

Agglyutinativ tillar so`z o`zagi yoki negiziga qo`shimchalar qo`shilishi natijasida yangi so`zlar hosil bo`luvchi tillar hisoblanadi.

Flektiv tillar – affikslarning o`zak bilan birikib unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Masalan: Arab tilida kitob (birlik), kutub (ko`plik) , yoki rus tilida друг (birlik), друзья (ko`plik).

Polisintetik tillarda asosiy nutq birligi so`zgapdir. Tavsif etilgan tillar orasiga qat`iy chegara qo`yib bo`lmaydi, chunki bir tilda uchraydigan ayrim til hodisalari boshqalarida ham uchrab turishi mumkin. Masalan, Okeaniya tillari ham amorf tillar ham agglyutinativ tillar sifatida tavsiflash mumkin.[1]

Biz tepada aytib o`tganimizdek, tillarni chuqur o`rganish natijasida til oilalari paydo bo`lgan, hozir ular haqida ba`zi ma`lumotlarni berib o`tamiz.

Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda dunyo tillarini 16, ba`zi olimlar 20-25 oilaga bo`ladilar. Bizningcha, bipinchi qarash to`g`riroq. Har bir til oilasi o`nlab tillami o`z icbiga oladi. Tillaming genealogik tasnifiga ko`ra, qarindosh tillar qarindoshlik darajasiga qarab oilalarga, bir oila doirasidagi qarindosh tillar tarmoqlarga, taqmoqlar guruh va guruhchalarga ajratiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida oiladan kattaroq tasnifiy birliklar: til oilalari, makrooila va boshqalarni aniqlash, belgilashga urinishlar ham kuzatiladi. Biz bilamizki qiyosiy – tarixiy tilshunoslik, ya`ni komparativistika - tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya`ni genetik jihatdan o`zaro bog`liq tillarni o`rganuvchi, ular o`rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularni zamon va makon bo`yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi, til oilalarining, shu tizimdagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, ularning yagona bir

manbadan, aniqroq qilib aytganda bitta bobo tildan kelib chiqqanligini aniqlash va shu kabi tillar haqida izlanishlar olib borish qiyosiy – tarixiy tilshunoslikning bir vazifasi hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda qiyosiy – tarixiy tilshunoslik tillarning kelib chiqishi va tillarning oilalarga bo`linishini aniqlab beradi.

Tillarning genealogik tasnifiy birliklari

- 1) Tillar makrooilasi
- 2) Til oilasi
- 3) Til tarmoqlari (shaxobchalari)
- 4) Til guruhi
- 5) Til guruhchasi
- 6) Til
- 7) Lahja
- 8) Sheva

Jahon tillari ichida so'zlashuvchilar soniga ko'ra xitoy, ingliz, rus, ispan, hind, urdu, indonez, arab, bengal, portugal, yapon, nemis tillari keng tarqalgan tillar hisoblanadi.[5;44]

Til oilalari

Tillar oilasi – kelib chiqishi jihatdan o`zaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksikogrammatik xususiyatlariga ko`ra o`xshash tillar majmui. Dunyo bo`ylab tillarning umumiy soni 2500 tadan 5000 tagacha deb taxmin qilinadi, shunga ko`ra tillar oilasining ham aniq soni keltirilmagan. Ko`pgina tillar qarindoshligi, leksikogrammatik jihatdan bir – biri bilan o`xshashligi uchun ular til oilalariga bo`linadi va bu til oilalari o`z ichiga til guruhlariga bo`linadi. Quyida bularni birgalikda ko`rib chiqamiz.

Hozirgi vaqtda tarixi o`rganilib, bir biri bilan qarindosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

- 1) Hind – yevropa tillari oilasi
- 2) Xom – som tillari oilasi
- 3) Turk tillari oilasi
- 4) Ugor – Fin tillari oilasi
- 5) Kavkaz tillari oilasi
- 6) Xitoy – Tibet tillari oilasi
- 7) Dravid tillari oilasi
- 8) Indonez tillari oilasi

- 1) Hind yevropa tillari oilasi

Hind – yevropa tillari oilasiga hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel`t, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlariga kiradi.

Hindiston tillari guruhi

- 1) Hind tili – Hindiston Respublikasining davlat tili
- 2) Urdu tili – Hozirgi Pokistonning davlat tili
- 3) Bengal tili
- 4) Maratxi tili
- 5) Panjob tili
- 6) Rajastani tili
- 7) Gujarati tili

Bu tillarda soʻzlashuvchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi

Eron tillari guruhi

- 1) Fors tili – Eronning davlat tili boʻlib , arab yozuvidan foydalanadi.
- 2) Pushtu- dari tili - Afgʻonistonning davlat tili boʻlib, arab yozuvidan foydalanadi.
- 3) Kurd tili
- 4) Tojik tili – Tojikiston Respublikasining davlat tili
- 5) Osetin tili – Osetiya Respublikasining davlat tili
- 6) Baluchi tili – bu tilda soʻzlashuvchi insonlar pokiston va eronda yashaydilar .

Slavyan tillari guruhi

- 1) Rus tili – Rossiya federatsiyasining davlat tili
- 2) Ukrain tili – Ukraina Respublikasining davlat tili
- 3) Belarus tili – Belorussiya Respublikasining davlat tili
- 4) Bulgʻor tili – Bulgʻoriya Respublikasining davlat tili
- 5) Serb- xorvat tillari – Yugoslaviya federativ Respublikasining davlat tili
- 6) Chex tili – Chexoslavakiya Respublikasining davlat tili
- 7) Slovak tiliv – Bu til ham Chexoslavakiya Respublikasining davlat tili hisoblanadi
- 8) Polyak tili – Polsha Respublikasining davlat tili hisoblanadi

Boltiq tillari guruhi

- 1) Litva tili - Litva Respublikasining davlat tili 2)
- 2) Latish tili – Latviya Respublikasining davlat tili

German tillari guruhi

- 1) Ingliz tili – Buyuk Britaniya, Shimoliy Amerika, Kanada kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tili hisoblanadi.
- 2) Nemis tili – Germaniya federativ Respublikasi va Avstriya Respublikasining davlat tili hisoblanadi.
- 3) Daniya tili – Daniyaning davlat tili
- 4) Shved tili – Shvedsiyaning davlat tili
- 5) Norveg tili – Norvegiyaning davlat tili

- 6) Golland tili – Gollandiyaning davlat tili
- 7) Island tili – Islandiyaning davlat tili
- 8) Vesgot va Ostgot o`lik tillari ham kiradi.

Roman tillari guruhi

- 1) Fransuz tili – Fransiyaning davlat tili
- 2) Italyan tili – Italiyaning davlat tili
- 3) Ispan tili – Ispaniyaning davlat tili
- 4) Portugal tili – Portugaliyaning davlat tili
- 5) Rumin tili – Ruminiya Respublikasining davlat tili
- 6) Moldava tili – Moldaviya Respublikasining davlat tili
- 7) Provansol tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Fransiyaning janubi-sharqida yashaydi.
- 8) Sardin tili – bu tilda so`zlashuvchilar Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi.
- 9) Katalan tili – Bu tilda so`zlashuvchilar asosan Ispaniyada yashaydi.
- 10) Reto –roman tili – Bu tilda so`zlashuvchilarning aksariyati Italiyada yashaydi.

Kel` t tillari guruhi

- 1) Irland tili –Irlandiya Respublikasining davlat tili
- 2) Shotland tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Angliyada yashaydi
- 3) Breton tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Fransiyaqa qarashli Bretan` yarim orolida yashaydi
- 4) Uels tili –Bu tilda so`zlashuvchilar Angliyaning g`arbiy qismida yashaydi

Gre (yunon) tillari guruhi

- 1) Yangi grek tili – Gretsiyaning davlat tili
- 2) O`lik tillardan qadimgi yunon, o`rta yunon yoki Vizantiya tillari kiradi

Alban tili guruhi

- 1) Alban tili – Albaniya Xalq Respublikasining davlat tili

2) Xom - som tillari oilasi

- | | |
|------------------------|-----------|
| 1) Xom | 2) Som |
| Tuareg, amazirt, shilx | arab tili |

3) Kavkaz tillari oilasi

- | | |
|-------------------|---------------------|
| 1) G`arbiy guruhi | 3) Dog`iston guruhi |
| 2) Veynax guruhi | 4) Janubiy guruhi |

G`arbiy guruhi

- 1) Abxaz tili – Abxaziya Respublikasining davlat tili
- 2) Abazin tili – Cherkas Avtonom Respublikasining davlat tili
- 3) Adigey tili – Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili

- 4) Kabardin – chergis tili – Bu til Kabarda - Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili

Veynax guruhi

- 1) Chechen tili – Chechen Respublikasining davlat tili
- 2) Ingush tili – Ingush Respublikasining davlat tili
- 3) Basbi tili – bu tilda soʻzlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

Dogʻiston guruhi

- 1) Avar tili
- 2) Dargin tili
- 3) Lazgin tili
- 4) Lak tili
- 5) Tabasaran tili

Bu tilda soʻzlashuvchilarning aksariyati Dogʻistonda yashashadi

Janubiy guruhi

- 1) Gruzini tili – Gruziya Respublikasining davlat tili
- 4) Ugor – fin tillari oilasi

Ugor fin tillari oilasi ikki turga boʻlinadi . Ugor va Fin

Ugor

- 1) Venger tili – Vengriya Respublikasining davlat tili
- 2) Mansi tili – Bu til Xabti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili
- 3) Xanti tili- Bu tilda soʻzlashuvchilar ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydi.

Fin

- 1) Fin tili – Finlandiyaning davlat tili
- 2) Eston tili – Estoniya Respublikasining davlat tili
- 3) Mari tili –bu tilda soʻzlashuvchilar Mari Respublikasida yashaydilar
- 5) Turkiy tillari oilasi
 - 1) Ozarbayjon tili – Ozarbayjon Respublikasining davlat tili
 - 2) Turk tili – Turkiyaning davlat tili
 - 3) Oʻzbek tili – Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili
 - 4) Turkman tili – Turkmaniston Respublikasining davlat tili
 - 5) Qozoq tili – Qozogʻiston Respublikasining davlat tili
 - 6) Qirgʻiz tili – Qirgʻiziston Respublikasining davlat tili
 - 7) Tatar tili – Tatariston Respublikasining davlat tili
 - 8) Uygʻur tili – Bu tilda soʻzlashuvchilar Xitoy Xalq Respublikasining Sin shan – uygʻur avtonom tumanida yashaydilar.
 - 9) Chuvash tili – Chuvash Respublikasining davlat tili
 - 10) Boshqirt tili- Boshqirdiston Respublikasida yashovchi xalqning tili

- 11) Yoqut tili – Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili
- 12) Tuva tili – Tuva Respublikasida yashovchi xalqning tili
- 13) Qoraqalpoq tili – Qoraqalpog`istoda yashovchi xalqlar tili
- 6) Xitoy - Tibet tillari oilasi

Xitoy-Tibet tillari oilasi ikki turga bo`linadi. Tay Xitoy va Tibet

Tay – Xitoy guruhi

- 1) Xitoy tili – Xitoy Xalq respublikasining davlat tili
- 2) Dungan tili – Bu tilda so`zlashuvchilar asosan Xitoy Xalq Respublikasida yashaydi
- 3) Vetnam tili – Vetnam Xalq demokratik Respublikasining davlat tili
- 4) Tay (Siam tili) – Taylandning davlat tili

Tibet tillari guruhi

- 1) Tibet tili – Bu tilda so`zlashuvchilar asosan Xitoy Xalq respublikasida yashaydi
- 2) Birma tili – Birma Ittifoqining davlat tili

Avstraliya tillari guruhi – bu tillar guruhiga juda ko`p tillar kiradi, lekin ular hali ham yaxshi o`rganilmagan.

Dravid tillari oilasi

- 1) Tamil tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Hindistonning Janubi – sharqida yashaydi
- 2) Malayalam tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Hindistonning Janubi-g`arbida yashaydi
- 3) Kamnara tili – bu tilda so`zlashuvchilar g`arbiy Hindistonda yashaydi
- 4) Telugu tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Hindistonning Janubi – sharqida yashaydi
- 5) Braxun tili – kamchilik aholi so`zlashadigan til

Paleosiyoyo tillari

- 1) Chukot guruhi
 - 2) Sibir` guruhi
- Chukot tili odul tili

Amerika hindularining tili

Shimoliy Amerika Markaziy Amerika Janubiy Amerika

Hech qanday tillar guruhiga kirmaydigan Uzoq Sharq tillari

- 1) Yapon tili – Yaponiyaning davlat tili
- 2) Ryukyu tili – Ryu-kyu orolida yashovchilar so`zlashadigan til
- 3) Quriya tili – Quriya Xalq Demokratik Respublikasining davlat tili
- 4) Ayn tili – Bu tilda so`zlashuvchilar Yaponiyaning shimolidagi Xokkaydo orolida yashaydi.[4]

Tepadagi ma`lumotlardan siz tillarning qaysi oilaga mansubligi va qaysi guruhga kirishini bilib oldingiz, endi quyida sizlarga tillar haqida qiziqarli ma`lumotlarni berib o`tamiz.

- 1) Barcha davlatlar orasida tillar soni bo`yicha birinchi o`rinni Papua Yangi Gveniyaga tegishli. Bu yerdagi millat vakillari deyarli 700 ga yaqin tilda muloqot qilishadi. Bu dunyo tillarining 15% ni tashkil etadi.
 - 2) BMTning ro`yxatida 6 ta rasmiy til bor
 - 1) Ingliz tili 3) Fransuz tili 5) Xitoy tili
 - 2) Rus tili 4) Arab tili 6) Ispan tili
 - 3) Dunyoning ko`pgina tillarida tinish belgisi yo`q. Masalan: Xitoy tilida
 - 4) Xitoy tilida – 85 568 ta eroglif (belgi) dan iborat. Ko`pchilik amerikalik xitoylar xitoy tilini yozma shaklda tushunishi mumkin, lekin og`zaki shaklda tushunmaydilar, chunki xitoy tili o`rganilishi murakkab bo`lgan tillardan bir va xitoy tilining shakllari va shevalari juda ham ko`p.
 - 5) Dunyoda eng ko`p tarqalgan til sifatida Xitoy tilining Mandarin lahjasi ta`kidlab o`tiladi, undan keyin esa Ispan va Ingliz tillari turadi.
 - 6) Arab va fors tillarida kata va kichik harflar degan tushunchasi yo`q va harflarni pazitsiyasiga qarab o`zgarib turadi, ya`ni arab va fors tillarida 2- ko`rinishli va 4-ko`rinishli harflar mavjud. Bu harflar so`z boshida, so`z o`rtasida va so`z oxirida ham alohida shaklda yoziladi.
 - 7) Berber tilining yozma shakli mavjud emas
- Dunyo bo`ylab eng murakkab tillar top - 10 taligi
- 1) Tabasaran tili – Dog`istonning tub aholisi tili hisoblanadi . bu tilda 48 ta kelishi va 54 ta harf mavjud.
 - 2) xitoy tili – 1994 – yilda tuzilgan xitoy tili lug`ati 85 568 ta eroglif belgidan iborat. Xitoyda yashovchi kishi yozishni boshlashi uchun kamida 1,5 ming eroglifni bilishi kerak.
 - 3) Arab tili – o`ngdan chapga qarab yoziladi, arab tilida bitta c harfining 3 ta shakli mavjud.
 - 4) Tyuka tili - Sharqiy Amazonka hindularining tili hisoblanadi.
 - 5) Venger tili – bu tilde 35 ta kelishik bor va juda ko`plab hajmdagi idioma va so`z yasovchi qo`shimchalar bor.
 - 6) yapon tili – bu tildagi yozuv va talaffuz o`rtasida kata farq bor. Bu tilda 3 ta alfavit bor. Yapon tilida savodli bo`lish uchun kamida 7 mingta belgini bilish kerak, talabalar esa 10 mingdan 15 minggaacha belgini bilishlari kerak.
 - 7) Bask tili – ikkinchi jahon urushida AQSH armiyasining shifrovchilari foydalanishgan, bu tilda 24 ta kelishik bor.
 - 8) Xayda tili – bu tilda 70 ta qo`shimchadan foydalanishadi. Xayda tande til bo`lib ohang tizimining yuqori va past bo`lishi shevalarga bo`g`liq.
 - 9) Eskimos tili – bu tilda 252 ta fleksik otlar mavjud. Ushbu tilda so`zlashuvchilar majoziy ma`noda o`ylashlari leral bo`ladi.
 - 10) Chippeva tili – Amerika hindulari tili. 6000 ta fe`l shakllari mavjud.

Xulosa qilib shuni aytib o`tishimiz mumkinki, tillar haqida olimlar tomonidan juda ko`p ma`lumotlar o`rganilgan va shu bilan birgalikda o`rganilishi kerak bo`lgan masalalar va muammolar ham bor. Dunyo bo`yicha hali fanga tadbiq etilmagan va til tizimi o`rganilib chiqilmagan qadimga davr hayoti bilan yashab kelayotgan qabilalar mavjud. Bu millat va elatlarning madaniyatini o`rganish til tarkibini grammatik va tuzilishi jihatdan o`rganib chiqib fanga kiritilishi tilshunos olimlarning vazifasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tillar_tasnifi
- 2) Irisqulov M. T. "Tilshunoslikka kirish" Toshkent: Fan. 2009. -263b
- 3) Uluqov N. "Tilshunoslik nazariyasi" Toshkent: Fan. 2016. -190b
- 4) Xolmonova Z. T. "Tilshunoslikka kirish" Toshkent: Fan. 2006. -177b
- 5) Sharipov O', Yo'ldoshev I "Tilshunoslik asoslari" Toshkent: Fan.2006. -89b
- 6) Khayrullayevna, K. G. (2021, June). Pragmatic failures in nonverbal communication of representatives of different ethnic groups. In " online-conferences" platform (pp. 100-101).